




Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



MENDELEEV DMITRIY IVANOVICH  
(1834-1907)

2022  
FEVRAL  
№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)



[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
7-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-7**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-7**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 25 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>1. Islomova Go'zal Ilhom qizi</b>	
NUTQNING SOFLIGINI TA'MINLASHDA "PARAZIT" SO'ZLARNING SALBIY VA	
IJOBIV TA'SIRI .....	7
<b>2. Ataboyeva Gulasal Adilbekovna</b>	
NEMIS TILI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN	
FOYDALANISH .....	8
<b>3. Babajanova Rayxon Rajabbayevna</b>	
DEVELOP THE LEARNER`S ORAL SKILLS BY SINGING ENGLISH SONGS.....	10
<b>4. Shaxnoza Jumaqulova</b>	
ETIMON ETIMOLOGIYANING OB'YEKTI SIFATIDA .....	12
<b>5. Ҳавасхон Шокирова</b>	
ПРЕСУППОЗИЦИЯ – ТИЛНИНГ ИЧКИ ИМКОНИЯТИ .....	14
<b>6. Ҳавасхон Шокирова</b>	
СЕМАНТИКАНИНГ ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ТАРАҚҚИЁТИ .....	16
<b>7. Valiyeva Nargizakhon Zamir qizi, Abdusamadov Zafar Nurmatovich</b>	
FEATURES OF INTERPRETATION OF INDIVIDUAL INTERTEXTUAL SPACE IN	
LITERARY TEXTS .....	19
<b>8. Rasulova Zarifa</b>	
THE HISTORY OF LINGUISTIC TYPOLOGY.....	21
<b>9. Valiyeva Nargizakhon Zamir qizi, Abdusamadov Zafar Nurmatovich</b>	
INTERDISCURSIVITY IN LITERARY TEXTS .....	23



## ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДЌИҚОТЛАР

### NUTQNING SOFLIGINI TA'MINLASHDA “PARAZIT” SO'ZLARNING SALBIY VA IJOBIVY TA'SIRI

**Islomova Go'zal Ilhom qizi**  
Navoiy viloyati, Xatirchi tumani  
2-umumiyl o'rta ta'lif maktabining  
ona tili va adabiyot o'qituvchisi  
+99893 326 54 14

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “parazit” so’zlarning nutq sofligiga salbiy va ijobjiy ta’siri haqida, “parazit” so’zlarni nutqdan bartaraf etish usullari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** “parazit” so’zlar, nutq, nutqning kommunikativ sifatlari, nutq madaniyati.

O’zbek tili leksikasi kundan kunga taraqqiy etib bormoqda. Bunda ichki imkoniyatlar bilan bir qatorda tashqi imkoniyat, ya’ni o’zga tillardan kirib kelgan so’zlarning lug’at tarkibimizni boyitishi ham yaqqol ko’zga tashlanadi. So’nggi davrlarda chetdan kirib kelgan so’zlarimizning soni nihoyatda ko’paydi. Bunday so’zlar qatoriga yuzlab so’zlarni misol qilishimiz mumkin. Kompyuter, menijer buxgalter, internet, telefon, bank... kabi leksimalar nutqimizda faol qo’llanilib kelmoqda.

Bugungi kunda, jadal taraqqiy etayotgan davrda, chetdan o’zlashgan leksimalarni , hatto o’zqatlamga oid leksimalarni me’yordan ortiq qo’llashimiz “parazit” leksima tushunchasini nutqimizga kirib kelishiga sabab bo’lmoqda. “Parazit” atamasi hamma uchun ma’lum. Uning ma’nosи yunoncha “parasitos” – “tekino’r, hamtovoq” bo’lib, asosan, jonli orzanimlarga nisbatan qo’llangan. Bunday organizmlar boshqa organizm hisobiga yashab, shu organizm salomatligiga ta’sir etadi. Bu leksimaning nutq bilan aloqasi yo’qdek tuyuladi. “P a r a z i t ” leksima bu nutqimizda noo’rin va juda ko’p qo’llanadigan: *shu, o’sha, karochi, xarosho, qisqasi, shunday, aniqrog’i, abezatolno...* kabi so’zlardir. Bunday leksimalar ifoda etilgan fikrning umumiyl leksik ma’nosini qabul qilinishini tubdan o’zgartiradi: “parazit” leksimalar aytilgan fikrlarning umumiyl ma’nosini “yeyishadi”. Bugungi kunda eng keng tarqalgan “parazit”lar quyidalar: like, mmm, imm, ok... Ushbu leksimalar internetdagи turli saytlarda eng faol leksimalar qatoridan o’rin olgan. Bunday “parazit”larning ayrimlari o’zlashgan qatlama so’zlari bo’lib, o’z leksik ma’nosiga ham ega va ularni nutqida o’rinli qo’llaydigan kishilarni ham uchratish mumkin:

Yugur, “tez yordam”ni chaqir!

Ok

“Parazit” leksimalarni nutqida ko’p qo’llaydigan kishi fikrni aniq va sof ifoda eta olmaydi, u haqida o’zgalar savodsiz, o’ziga ishonmaydigan odam degan fikrga borishadi va unga jiddiy e’tibor qaratishmaydi. Bunday insonlar o’zini chalkashtiradi va atrof- muhitga, jamiyatdagi o’zgarishlarga befarq bo’ladi.

O’rni kelganda, “parazit” leksimalarning foydali funksiyalarini ham aytib o’tish lozim. Ular kishilarni tezroq fikr bildirishiga sabab bo’ladi, noqulay savol berilganda vaziyatdan oson chiqishga yordam beradi, “parazit” so’zlar badiiy asar va kinossenariylarda salbiy obrazlarni tasavvur qilish oson.

Nutqimizni sof holda saqlash deyarli mumkin emas. Lekin “parazit” so’zlardan xolos bo’lish nutqni yanada mazmunli bo’lish va boshqalar uchun tushunarli bo’lishini ta’minlaydi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. R.Qo’ng’urov va b. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. T. “O’qituvchi” 1992
2. E.Begmatov. Notiqning nodir boyligi. T. “O’zbekiston” 1980
3. A. Xo’jayeva. Notiqlik san’ati. T. 1967



## NEMIS TILI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ataboyeva Gulasal Adilbekovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

23-sonli maktabning Nemis tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nemis tilini o'qitishda qanday jihatlarga e'tibor berish, yangi metodlarni dars jarayoniga qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** nemis tili, metod, suhbat, dars, o'qituvchi, matn, grammatika, til.

Maktablarda nemis tilini o'rgatish jarayonida o'qituvchilar ko'plab pedagogik metodlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Metodlardan foydalanishda o'quvchilar yoshi, nechi yildan beri nemis tilini o'rganayotganligi, ularning bilim darajasi va bir haftada necha marotaba dars o'tishlarini hisobga olish kerak. Eng muhim jihat esa, o'qituvchi o'quvchilarni qiziqtira olishidir. O'quvchini darsga oddiy qiziqtirish usullari bilan jalb qilgandan keyin, o'quvchilar dars mavzusini diqqat bilan tinglashni boshlaydilar. Aynan shunday vaziyatda o'qituvchi qo'llayotgan metod ijobjiy ta'sir qiladi.

Audiolingual metodning bir dars misolida asosiy xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Bu pedagogik metoddan foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- darsda davomida o'rganiladigan matn ustida ishslash;
- grammatik qoidalarni tushuntirish;
- mashqlar bajarish orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash;
- dars qurilishini soddaroq holda olib borish;
- dars paytida o'rganiladigan matnni tanishtirish.

Darslikda kiritilgan har bir matn uchun quyidagi uch omil muhim hisoblanadi:

1. O'tiladigan materialni qog'ozga tushirish orqali o'quvchilarga tushuntirish. Matnga bir necha savollar orqali murojaat qilamiz, chunki u bizga ba'zi jihatlari bilan ma'qul bo'lishi kerak: Matn qanday bositgan (sarlavha, bo'rttirishlar, bo'linishlar)? Rasmlar mavjudmi? So'z va matn qanday munosabatga kiritilgan? Bu masalalar ayniqsa, asliy (original) matnlar darsimizga kiritilgan bo'lsa, muhim ahamiyatga ega.

2. Materialning uslubiy jihatdan xususiyati (til uslubi). Darsda foydalanadigan har bir matn turi alohida til uslubiy xususiyatiga ega. Masalan, misol tariqasida oladigan taom tayyorlash retseptida ko'pincha buyruq mayli yoki otlashish shakli qo'llaniladi: Reklamada esa juda "shirin" kabi so'zlardan (solishtirish, metafora, bo'ttirish) va yangi so'z yasash usullaridan foydalaniladi.

3. Mavzudagi matn vazifasini tahlil qilamiz. Har bir matn ma'lum maqsad uchun tuziladi, masalan, poyezd harakati haqidagi axborotni aks ettirish (qatnov jadvali), mahsulotning foydaliliginini ko'rsatish (reklama), axborot berish (gazeta xabari), ma'lum ishni bajarish uchun ko'rsatma berish (foydalanish uchun tavsiya) yoki biron voqeani bayon qilish (hikoya, ertak).

Darsimizda ta'limiy funksiyani bajarish uchun mo'ljallangan matnlar mavjud bo'lish kerak. Ular grammatikaning ma'lum mavzusini yoki til hodisasiiga oid ma'lum misolni aks ettirish uchun hizmat qiladi.

Dars davomida foydalanadigan metodlarimizning samaralilik darajasini quyidagi matn orqali ko'rib chiqamiz.

### Der Geburtstag

Frau Hartmann: Wie gefaelt dir Kamera?

Herr Hartmann: Mir? -Gut! Wenn gehoert sie den?

Frau Hartmann: Stefan. -Du weisst doch, er hat heute Geburtstag.

Ich moechte sie ihm schenken.

Herr Hartmann: Ja, Natuerlich. Ich vergesse die Geburtstage immer.

Frau Hartmann: Gibst du ihm die Kamera, wenn du ihm gratulierst?

Das freut ihn bestimmt.- Da kommt er ja.

Herr Hartmann: Stefan, Wie geht es dir?

Stefan: Mir: - Prima! Aber warum fragst du mich?

Herr Hartmann: Du hast doch heute Geburstag. Mutti und ich gratulieren dir und schenken dir den Fotoapparat. Gegaelt er dir?



*Stefan: Ja, Vielen Dank, Mutti! -Vielen Dank, Vati! Wie funktioniert denn der Apparat?*

*Herr Hartmann: Moment! Ich zeige es dir, und dann machst du eine Aufnahme von uns allen.*

*Ushbu matnda keltirilgan suhbatda metodlarimiz uchun bir necha jihatlari bor.*

**Matnning qog’ozga tushirilishi:** Dastlab katta fotosurat ko‘zga tashlanadi. Rasmda oila tasvirlangan, stol bayramona yasatilgan. Barcha nighohlar o‘ng tomonda fotokamerani diqqat bilan o‘rganayotgan yigitchaga qaratilgan. Surat suhbat vaziyati va mavzusidan dalolat beradi. U shuning uchun tayyorlangan va ta’limiy funksiyani bajaradi. Matnga “Tug’ilgan kun” deb sarlavha qo‘yilgan. Matnning ko‘rinishdan uning “suhbat” ekanligi yaqqol sezilib turadi.

**Matnning til xususiyati:** Chiroli yasatilgan stol atrofida tug’ilgan kuni nishonlanayotgan farzandini kutayotgan ota-onasi bilan suhbat qanday o‘tadi? Agar o‘g’il anchadan beri orzu qilib yurgan fotokamerani sovg’a sifatida olsa, qanday suhbat bo‘ladi? Haqiqiyimi? Hayajonlimi? Tayyorlanganmi? Bularning barchasi suhbat vaziyatida rollarni bo‘lib olgan kishilarga bog’liq.

**Matn funksiyasi:** Dialog “tug’ilgan kun” voqeasini tasvirlaydi. (Kim? Qayerda? Nima sovg’a qilindi? va boshqalar) haqida o‘quvchiga axborot beradi. Lekin bu hali hammasi emas. Dialog tug’ilgan kun haqida axborot berishdan tashqari boshqa muhim vazifani ham bajaradi.

**Grammatikani tasvirlash.** Dars davomida grammatik material bevosita dars bo‘limlari tarkibida berilmasdan, balki alohida grammatik ilovada beriladi. Bu holat grammatika dars jarayonida chiqarib tashlanishi ham mumkin, uni dars jarayonida olish shart emas, degan ma’noni anglatadi.

Nemis tili xususiyatlarida kelib chiqib, pedagogik metodlardan samarali holda foydalanish mumkin. Darsda ishlatalidigan metodlarni o‘qituvchi o‘z o‘quvchilari bilim darajasidan kelib chiqib va aynan ularga mo‘ljallab ishlatganda ularning ijobiliy foydalari ko‘proq bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.X.Farbermann “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar ” T, O‘z. R. F.A. 2000.
2. R.J.Eshmuhamedov “Innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari” T, 2004.
3. Г.В. Рогова Ф.М.Рабинович, Т.Е. Сахарова Методика обучения иностранным языкам в средней школе. М. Просвещение. 1991.



## DEVELOP THE LEARNER'S ORAL SKILLS BY SINGING ENGLISH SONGS

BABAJANOVA RAYXON RAJABBAYEVNA  
SHOVOT DISTRICT OF KHOREZM REGION 27 IDUM

**Annotation.** The scientific papers related to the use of musical works in the course of teaching English. It is noted that the differences, as a rule, are limited to observations and recommendations of a private nature, as well as an appeal to new educational material (previously unused pieces of music). The authors come to the conclusion that the use of songs in foreign language lessons should not be taken as an “educational panacea” or the main teaching method. Listening skills are recommended to be developed using traditional exercises that have been proven over many decades.

**Keywords:** song, composition, piece of music, foreign language, student, task

In its structure, any song is a creolized text. Such texts include two parts: verbal and non-verbal (not related to the use of natural language). Recently, the scientific and pedagogical community has shown particular interest in the use of such complexes (songs, films, etc.) in foreign language classes.

According to N. S. Khvan, work with a piece of music in an English lesson should include the following steps:

1) verbalization of the grammatical rule, which is to be fixed through this song (at the same time, the teacher should voice unfamiliar vocabulary and translate it so that the implementation of the task is not complicated by a misunderstanding of the components of the general meaning);

2) demonstration of the song text to schoolchildren on a poster or a wide screen, with grammatical difficulties marked in red or other bright colors);

3) analysis of the structure of the work (the number of verses, repetitions of the chorus, etc.), working out the elements of the song text that coincide with musical phrases;

4) voicing the song together with the teacher (slowly, with concentration on problem areas);

5) games with students (individual and group), aimed at postponing the text in long-term memory;

6) the “Teacher-student” game technique (the teacher sings the work in verses, deliberately omitting some words and expressions that students must restore and sing without outside help - moreover, at the right pace and at the right time);

7) dubbing a work with a different key, at a different pace, with a change in musical style;

8) a task of a creative type, giving students the opportunity to come up with their own, “author’s” version of the song.

S. Y. Solovyova points out three key criteria by which song material should be chosen. The first criterion is the authenticity of the songs: the author of the text and the performer must represent a certain linguistic culture. From our point of view, this plays a particularly significant role in English lessons, since it is not native for the creators of many popular songs and for the singers themselves (“ABBA”, “Boney M”, “Ace of Base”, etc.). The American version is often used, which, being very common, is nevertheless often not considered as a reference. According to the criterion of emotional impact, the teacher must take into account the brightness, “interestingness” of the composition, especially music (which correlates with the above recommendation by Y. V. Novikova). The criterion of methodological value, on the contrary, is related to the text component: it is necessary to take into account such factors as the topic of the lesson, the age of the children and their level of language proficiency.

Among English teachers, the work of the famous English group “The Beatles” is especially popular. N. E. Kolonskikh and Ya. S. Ponomarev are advised to refer to their works, using as an example the verbal component of the legendary hit “Yesterday”. This text can be considered as simple as possible, accessible to students with the “A1” level, but this impression is misleading: the text contains grammatical points related to higher levels of language proficiency: (turn “used to”, conjunction “as though”, etc. d.). For this reason, when teaching beginners, it is better to use band compositions such as “Let it Be” and “Yellow Submarine”. It should be emphasized that in some songs included in the repertoire of The Beatles, there are serious grammatical errors - for example, “don’t” instead of “doesn’t” and double negation (in the works “Ticket to Ride” and “Can’t Buy



Me Love” respectively). It is unlikely that the authors, who are well educated native Britons, allowed this out of illiteracy; obviously, it was calculated to produce a certain stylistic effect. And yet, we would not recommend using such compositions in English classes ... The teacher may feel a desire to ask students to find and correct a mistake in the song text. There are similar exercises in many textbooks, but we consider this approach to be unsuccessful from a methodological point of view: memory can retain the wrong option. The risk of this is higher the younger the student and the weaker his language skills. According to T. I. Belik and N. A. Poletaeva, it is better to choose works with a harmonious, consistently developing plot for classes, since they are easier to perceive and remember. In the pop music genre, such songs are not very common: as a rule, emotions are described, not facts.

Let us repeat the main idea of our article stated in the introduction: the use of songs in foreign language lessons should not be taken as an educational panacea or the main teaching method. Therefore, we are not ready to argue with T.I. Belik and N.A. Poletaeva, who consider musical works to be the main catalysts for cognitive activity and enthusiasm for the subject being studied. This situation characterizes the lesson and the teacher himself far from the best. It is also difficult to agree with another author who compares the “musical approach” to learning with a sweet icing enveloping a bitter pill: after all, in an inclusive era, the “pill” of education should not be bitter on its own... In our opinion, a song with all the complementary her exercises - only one note of the pedagogical fugue, which is obliged to emphasize its integrity and balance. We recommend accepting this metaphor and relying on it in the educational process.

### Literature:

1. Ерёмина А.С. Комиксы как средства формирования коммуникативной компетенции при обучении иностранному языку на среднем этапе / А.С. Ерёмина // Учёные записки национального общества прикладной лингвистики. – 2015. – № 2 (14). – С. 26–30.
2. Graham S. Comics in the Classroom: Something to Be Taken Seriously [Electronic resource] / S. Graham // Language Education in Asia. – 2011.
3. Khan A. Using Films in the ESL Classroom to Improve Communication Skills of Non-Native Learners / A. Khan // ELT Voices. – 2015.
4. Millington N. T. Using Songs Effectively to Teach English to Young Learners [Electronic resource] / N. T. Millington // Language Education in Asia. – 2011.
5. Murphey T. Music and Song / T. Murphey. – Oxford: Oxford University Press, 2012.



## ETIMON ETIMOLOGIYANING OB'YEKTI SIFATIDA

Shaxnoza Jumaqulova

Stajyor-tadqiqotchi, Termiz davlat universiteti  
sjumaqulova7@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada etimologiya so'zning kelib chiqishini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi va uning birligi hisoblangan etimon hamda uning ifoda va mazmun plani haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Etimologiya, etimon, ifoda plani, mazmun plani

Etimologiya tilshunoslikning juda qadimgi sohasi hisoblanadi. Etimologiya so'z tarkibidagi va uning ma'nolaridagi tarixiy o'zgarishlar, ovoz o'zgarishlari, so'zlardagi morfologik o'zgarishlar qonuniyatlariga asoslangan. Eramizdan avvalgi faylasuf va filologlar ham so'zlarning dastlabki kelib chiqish tarixi bilan shug'ullanganlar. Shu bilan bir qatorda etimologiya yasama, qo'shma va xorijiy tillardan o'zlashtirilgan so'zlar ma'nolari bilan ham shug'ullanadi.

Tilshunoslar so'z paydo bo'lishining dastlabki izini etimon deb atashadi, aslida bu atama eng oddiy morfemalarning asl morfemasini bildiradi. M.V.Ilinning “Образ: Исходные когнитивные схемы и этионы” nomli ilmiy ishida ular turli grammatik sinflar, leksik ma'no va kommunikativ funksiyalardagi so'zlardan paydo bo'lishi ta'kidlangan. Dastlabki barcha nomlangan so'zlarda ajralib turadigan bitta tovushlar birikmasi tasviri aniq bir etimoni mavjud. “Etimon” lingvistik atamasining o'zi yunoncha “ετύμον” ismidan transliteratsiya qilingan. Bu esa, o'z navbatida, “haqiqiy, hozirgi” ma'nosiga ega asosli neytral sifatdir [1]. Etimon atamasining o'zi etimoni aniq ma'lum emas.

Linguo-qiyosiy tadqiqotlar rivojlanishining hozirgi bosqichida XIX asr boshida qo'yilgan muammo – tadqiqotchi ish olib boradigan ma'lum bir til darajasining tarkibiy birligining tashkil etilishi munozarali bo'lib qolmoqda. Turli xil nutq darajalarini chuqur o'rganish nafaqat tillarning qadimgi shakli mavjudligini va aniq ismlarning o'zgarish yo'llarini, mavhum tushunchalarning paydo bo'lishi, shuningdek nutq shaklini qidirish hamda etimon atamasi bilan birga shakl etimoni (ifoda plani) va ma'no etimoni (mazmun plani) bilan tavsiflanadi.

Y.V.Kapranov o'z tadqiqoti davomida “Tilshunoslik atamalari lug'atida” etimon tushunchasi “so'zning birlamchi shakli va ma'nos” sifatida talqin etilganligini va bu E.Makayevning mulohazalarida tasdiqlangan bo'lib, u etimon tegishli ravishda etimologik darajada fonomorfologik va semantik darajada tuzilgan ma'lum bir leksema yoki turli xil tillarda hosil bo'lgan shakllanishlar guruhi uchun manba bo'lgan kompleks ya'ni tovush va ma'no o'rtaсидиги bog'laydigan bo'g'inlardan biri bo'lgan ham shakl etimoni (ifoda plani), ham ma'no etimoni (mazmun plani) mavjudligi bilan tavsiflanganligini, bu tushunchaga erishish uchun ma'lum bir yordamchi qo'shimchalar degan ma'noni anglatilganligini bataysil tushuntirib bergan [2]. Etimonni qayta tiklash tartibi tadqiqotchi tushunmoqchi bo'lgan etimologik qismni aniqlashtirishga bog'liq, chunki etimologik qism qancha chuqur darajada bo'lsa, leksemalarni emas, balki etimonning ildizini yoki tuzilishini tiklash shu darajada samaraliroq va haqiqiy bo'ladi.

Etimonning tuzilishi Ferdinand de Sossyur nazariyasida etimonni lingvistik belgi deb hisoblash mumkinligi to'liq mos keladi deb taxmin qilingan ya'ni bu ikki tomonlama nutq birligi ham shakl etimoni (ifoda plani), ham ma'no etimoni (mazmun plani)ga ega, ya'ni ob'ekt, xususiyat, o'sha paytdagi haqiqat bilan o'zaro bog'liqlikni anglatadi [3].

Etimonning vazifasi universal til vazifa bo'lib, bu o'z navbatida tilning so'z hosil qilish qobiliyati tufayli mavjud tillarning har biriga xosdir. Boshqa so'z bilan aytganda, bu tilning mahsuldar vazifasidir. Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib, tilshunoslar etimonni qayta tiklashga yo'naltirilgan tegishli ravishda etimologik asosda tuzilgan turli xil tillarda ma'lum bir leksema yoki yasama so'zlar guruhi uchun manba bo'lgan fonomorfologik va semantik kompleks darajalarini, bir tomonidan, ifoda nuqtai nazaridan ma'lum bir etimologik darajadagi asl til (nutq) ning shaklini yoki proformasini o'rnatish, boshqa tomonidan, mazmun jihatidan mavjud bo'lgan shakllardan foydalangan holda tegishli shaklning ma'nosini aniqlashda semantik qayta qurish jarayonlarini ta'kidlash mumkin.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ильин М.В. “Образ: Исходные когнитивные схемы и этионы”. Образ и образность. От образования вселенной до образования ее исследователя. Вып.8. – М.: Московский ежегодник трудов из обществоведческих дисциплин: Сб. науч.тр., 2018. – С.13.
2. Капранов Я.В. Витлумачення терміна “етимон” як знакового утворення прамовного стану. Серія “Філологічна”. Випуск 61. – Київ, 2016. – С.65.
3. Ferdinand de Sossyur. Umumiy tilshunoslik kursi. – T.: Navoiy, 2019. – B.87.



## ПРЕСУППОЗИЦИЯ – ТИЛНИНГ ИЧКИ ИМКОНИЯТИ

Хавасхон Шокирова

Фарғона политехника институти доценти

Телефон: + 998932700172

e-mail: shokirovaxavasxon.nurmamatovna@gmail.com

**Аннотация:** Мазкур мақолада тилнинг ички имконияти ҳисобланган лисоний пресуппозицияни ўрганиш масалалари ёритилган.

**Калит сўзлар:** лингвистик пресуппозиция, тил воситалари, имплицит мазмун, эксплицит ифода, синтактик структура, семантик структура.

Маълумки, лингвистик пресуппозицияни ўрганишда тилшуносларнинг асосий эътибори унга ишора қилувчи тил воситаларига қаратилди. Негаки, пресуппозицияга ишора қилувчи тил бирликларининг лисоний тадқиқи гап мазмуний тузилишидаги ўзига хос ўзгаришларни аниқлашда алоҳида ўрин тутади. Ҳар бир тилнинг лингвистик пресуппозицияга ишора қилувчи ўз белгилари мавжуд. У.Рахимов лингвистик пресуппозициянинг ўзбек тилидаги ташки сигналларини қўйидагича таснифлайди: 1. Лексик воситалар. 2. Морфологик воситалар. 3. Синтактик воситалар.

Тилшунос пресуппозицияга йўл очувчи лексик воситаларга омоним, синоним ва антоним сўзларни, морфологик воситаларга маълум сўз туркumlаридаги категорияларни ҳамда кўмакчи ва юкламаларни киритади. Синтактик воситалар сифатида сўрқ гаплар, ўхшатишли қурилмалар ҳамда сўз тартибини кўрсатади. Унинг бошқа ишида «пресуппозициянинг лисоний кўрсаткичлари – фонема, морфема, лексема, сўзшакл, сўз бирикмаси, гаплар ишораси» тарзида белгиланади<sup>1</sup>. Д.Лутфуллаева эса тасдиқ гаплар таркибида инкор пресуппозицияга ишора қилувчи лисоний воситаларнинг қўйидаги кўринишларини фарқлади: 1. Лексик-грамматик воситалар. 2. Синтактик воситалар.

Д.Лутфуллаева тасдиқ гапда инкор пресуппозицияга ишора қилувчи лексик-грамматик воситаларга кўмакчи, юклама ва айрим боғловчиларни, синтактик воситаларга истакни ифодаловчи уч турдаги синтактик қолипларни киритади<sup>2</sup>. Кўринадики, ўзбек тилида содда синтактик шакл орқали мураккаб мазмунни ифодалашда ёрдамга келувчи пресуппозиция сигналлари хилма хил. Бундай лисоний воситалар муайян нутқ вазиятида пресуппозицияга ишора қилиб, содда гапнинг мазмуний тузилишини мураккаблаштиради. Ҳар бир лисоний восита ўзига хос шаклий тузилишдаги гапларни ҳосил қилишда иштирок этса-да, яширин тарзда кўшимча ахборотни ифодалashi жиҳатидан умумийликка эга бўлади. Бу лисоний воситаларга хос янабирумумий белгишундаки, улароссий ҳоллардагапмазмунигазидбўлган яширин ахборотни юзага келтириб, зидлик муносабатини ҳосил қилади. Пресуппозиция гапнинг ташки структурасида имплицит ва эксплицит ифодага эга бўлади. И.В. Самойлова ҳам бу фикрни қўллаб кувватлайди<sup>3</sup>. Тилшунос Хоанг Фе эса пресуппозицияни ифоданинг имплицит мазмунига тенглаштириб бўлмаслигини таъкидлайди<sup>4</sup>. Англашиладики, тилшунослар бу масалада ҳар доим ҳам ҳамфир эмаслар. Пресуппозиция барча тилларда кузатилади. У ҳар бир тилда шу тилнинг ички имконияти, ифода воситаларининг ўзига хос хусусияти асосида белгиланади. Бу ҳолат пресуппозициянинг ифодаланиши масаласига

1 Раҳимов У. Лисоний пресуппозиция // Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги.- Тошкент.2004.- Б. 58., Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф.- Самарқанд, 1994.- Б.8.

2 Лутфуллаева Д. Тасдиқ гапларда шаклий-мазмуний номувофиқлик. -Тошкент:Фан,1997. - Б.11-27.

3 Самойлова И.В. Смысл высказывания как совокупность пропозиционального и пресуппозиционального значений / Формальный и содержательный аспекты предложения в германских языках: Межвуз. сб. науч. тр. - Горький. 1988. - Б. 49.

4 Хоанг Фе. Семантика высказывания // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. ХУ1. - М., 1985. - Б.310.; Раҳимов У. Лисоний пресуппозиция // Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги. - Тошкент. 2004. - Б. 58. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Самарқанд, 1994. - Б. 8; Раҳимов У. Кўрсатилган тадқиқот иши.- Б.9., Лутфуллаева Д. Тасдиқ гапларда шаклий-мазмуний номувофиқлик. - Тошкент: Фан, 1997. - Б. 11-27.



турли ёндашувни юзага келтириши табиий. Бироқ тан олиш жоизки, пресуппозиция гап ташқи структурасида моддий кўринишини тўлиқ намойиш қилмайди. Аммо унинг ташқи сигналлари – ишора воситалари, табиийки, синтактик структурадан ўрин олади. Бу жиҳатдан қараганда, пресуппозициянинг эмас, унга ишора қилувчи тил бирлигининг эксплицит ифодаси хусусида фикр юритиш ўринли бўлади. Бу тил бирлиги пресуппозицияга ишора килса-да, унинг синтактик структурасини акс эттирмайди. Яна бир жиҳат шундаки, пресуппозиция нутқда турли синтактик курилмалар орқали юзага чиқади. Бундай синтактик курилмалар бевосита пропозицияни ҳам акс эттиради. Пресуппозиция орқали англашилувчи аҳборот эса синтактик курилмадан англашилиб турса-да, унинг ташқи структурасига тўла мос келмайди. Бу холат пресуппозициянинг яширин ифодаланиши хусусида фикр юритишга асос бўлади. Бугунги кунда тилшуносликда пресуппозиция хусусида жуда кўп маълумотлар тўпланган. Шу кунга қадар пресуппозиция семантик, прагматик, кенг, тор, лингвистик пресуппозиция, экзистенционал, синтагматик, коннотатив, коммуникатив, логик, лексик, лексик бўлмаган, ноэкзистенционал, якка, умумий, универсал каби турларга бўлиб ўрганилди<sup>1</sup>.

Маълум бўладики, пресуппозиция гап курилишида унинг мазмуний тузилиш узви сифатида яширин ифодага эга бўлади. Бу хусусият қадимги шарқ халқларида пресуппозициянинг “лутф”, “турли ишоратларга бурканган нутқ” тарзида талқин этилгани бежиз эмаслигини англатади: 1) маълумки, лингвистик пресуппозицияни ўрганишда тилшуносларнинг асосий ёътибори унга ишора қилувчи тил воситаларига қаратилди. Негаки пресуппозицияга ишора қилувчи тил бирликларининг лисоний тадқиқи гап мазмуний тузилишидаги ўзига хос ўзгаришларни аниқлашда алоҳида ўрин тутади; 2) ҳар бир тилнинг лингвистик пресуппозицияга ишора қилувчи ўз ташқи сигналлари мавжуд<sup>2</sup>. Шунинг учун ҳам тилшуносликда пресуппозиция термини остида муайян жумла таркибида бевосита ифодаланмаган, яширин ҳолда акс этган маъно тушунилади. Пресуппозиция тушунчаси контекстда ушбу жумланинг экстралингвистик субстрати, юзага чиқиши шартшароити тушунчаларини ўз ичига олади.

### Адабиётлар рўйхати:

